Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 821.512.133
FILOLOGIYA

ALISHER NAVOIYNING FORSIY VA TURKIY RUBOIYLARIDA TASAVVUFIY-FALSAFIY G'OYALARNING BADIIY TALQINI

Shaxlo Omonovna Masutova*
Navoiy davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
✉ nodirbekrahmonov06@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiyning forsiy va turkiy ruboiylari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Shoirning ikki tildagi ruboiylarida tasavvufiy-falsafiy g'oyalar, ishq konsepsiyasi, hamd va munojot, komil inson talqini hamda badiiy timsollar tizimining mushtarak va o'ziga xos jihatlari ochib beriladi. Tahlillar asosida forsiy ruboiylarda irfoniy mushohada va ramziy ifoda ustunligi, turkiy ruboiylarda esa didaktik ruh hamda xalqona ifoda kuchliroq namoyon bo'lishi asoslanadi.

Kalit so'zlar

Alisher Navoiy, Devoni Foniy, Xazoyin ul-maoniy, forsiy ruboiy, turkiy ruboiy, tasavvuf, hamd, munojot, ishq, badiiy timsol.

DOI: 10.5281/zenodo.21743815

Kirish

Alisher Navoiy Sharq mumtoz adabiyotida ikki tilda mukammal ijod qilgan nodir siymolardan biridir. Uning forsiy va turkiy ruboiylari g'oyaviy mazmuni, falsafiy mushohadalari hamda badiiyligi bilan bir-birini to'ldiruvchi yaxlit badiiy tizimni tashkil etadi. Har ikki tildagi ruboiylarda ishq, ilohiy kamolot, fano va baqo, komil inson, qanoat, sabr, umrning o'tkinchiligi kabi masalalar yetakchi o'rin egallaydi. Biroq mazkur g'oyalarning ifodalanish usuli, poetik vositalari va obrazlar tizimida muayyan tafovutlar kuzatiladi.

Forsiy ruboiylarda fors-tojik mumtoz she'riyati an'analari, tasavvufiy istilohlar va ramziy tafakkur kuchliroq namoyon bo'lsa, turkiy ruboiylarda xalqona iboralar, sodda uslub va didaktik ohang ustuvorlik kasb etadi. Shu bois Navoiy ruboiylarini qiyosiy o'rganish shoirning ikki tilli badiiy tafakkurini, har bir tilning poetik imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Tasavvufiy-falsafiy g'oyalarning forsiy va turkiy ruboiylardagi mushtarakligi

Alisher Navoiy ruboiylarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shoir har ikki tilda ham tasavvufiy-falsafiy g'oyalarni izchil davom ettirgan. Biroq bu g'oyalarning kompozitsion joylashuvi va badiiy ifodasida muayyan farqlar mavjud. Jumladan, **"Xazoyin ul-maoniy"** tarkibidagi **"G'aroyib us-sig'ar"** devonining ruboiylari an'anaviy tarzda hamd va munojot mazmunidagi ruboiylar bilan boshlanadi. Dastlab Alloh taoloning qudrati madh etilib, keyingi ruboiylarda banda va Parvardigor munosabati, ilohiy marhamat va ma'rifat masalalari yoritiladi. Bu hol mumtoz devon tuzish an'analariga to'la mos keladi.

"Devoni Foniy" ruboiylari esa boshqacha kompozitsion yechimga ega. Unda ruboiylar bevosita ishq mavzusi bilan boshlanadi. Mahbub husni, oshiqning ruhiy kechinmalari va hijron iztirobi dastlabki ruboiylardanoq yetakchi mavzu sifatida namoyon bo'ladi. Demak, turkiy devonda ilohiylikka olib boruvchi yo'l hamd va tavhid orqali ochilsa, forsiy devonda bu yo'l ishq falsafasi orqali boshlanadi.

Shunga qaramay, har ikkala devonda ham Allohning ulug'ligini madh etuvchi hamd ruboiylari mavjud. Masalan, Navoiyning quyidagi forsiy ruboiysi ilohiy ilmning cheksizligini ulug'laydi:

Ey behad-u adad, har nafasat hamd-u sano,V-az sad chandin hamd-u sano-t istig‘no.Zikri malakut andar in dayri fano,Bo ilmi tu “Subhonaka lo ilma lano”.[2, B.47]

Mazkur ruboiyda Qur'oni karimning “Baqara” surasi 32-oyatidagi “Subhonaka lo ilma lano” iborasiga talmeh qilinadi. Shoir Allohning mutlaq ilmi qarshisida inson bilimining cheklanganligini ta'kidlaydi. Ruboiyda hamd oddiy madh emas, balki tasavvufiy ma'rifatning asosiy tamoyili – insonning o‘z ojizligini anglash g‘oyasini ifodalaydi.

Bu mazmun turkiy ruboiyda quyidagicha davom ettiriladi:

Subhonallohi xoliqi zul-majdu alo,Kim, andin erur to‘la xalo birla malo.Gar mehr aning misli degaylar uqalo, Mehr ollida zarra yanglig‘ o‘lg‘ay masalo. [1, B.544]

Turkiy ruboiy ham tavhid mazmunida yozilgan bo‘lib, unda Alloh butun borliqning yagona Yaratuvchisi sifatida madh etiladi. Quyosh obrazi ilohiy qudratga qiyos qilinib, uning oldida hatto quyosh ham zarra qadar ojiz ekani mubolag‘ali tashbeh orqali ifodalanadi.

Har ikkala ruboiyda ham Qur'oniy tafakkur asosiy g‘oyaviy manba vazifasini bajaradi. Biroq forsiy ruboiyda ilohiy ilm va ma'rifat masalasi tasavvufiy mushohada orqali yoritilsa, turkiy ruboiyda Yaratuvchining qudrati xalqona va ravon poetik ifoda vositasida ulug‘lanadi. Demak, mushtarak g‘oya saqlanib qolgan bo‘lsa-da, uning badiiy talqinida til va poetik an'ana ta'siri seziladi.

Forsiy ruboiylar orasida duoyi xayr va madh ruhidagi asarlar ham alohida o‘rin tutadi. Jumladan:

To subh ayon kunad ziyo sham’i Xutan,To ro‘z buvad charog‘i xur sha'sha'azan.To shom buvad mash'ali mah nurafkan,Yo Rab, ki buvad charog‘i umrat ravshan. [2, B.55]

Ushbu ruboiyda tong, quyosh va oy obrazlari orqali umrning ravshan va barqaror bo‘lishi tilanadi. Nur timsollari ketma-ketligi ruboiyning poetik yaxlitligini ta'minlaydi. Yakuniy misradagi “Yo Rab” murojaati esa duoning samimiy ohangini kuchaytiradi.

Mazkur g‘oya turkiy ruboiyda ham o‘ziga xos tarzda rivojlantirilgan:

Umring quyoshig‘a bermasun charx zavol,Joning qamarini qilmasun davr hilol.Tun-kun bo‘lg‘il mahravishu mehr xisol,Dahr ahlig‘a nurbaxshu farxundajamol. [2, B.561]

Turkiy ruboiyda umr quyosh, jon esa oy timsoli orqali ifodalanadi. Shoir faqat uzoq umr tilamaydi, balki insonning quyoshdek saxovatli va oydek go‘zal xulqli bo‘lishini ham istaydi. Shu jihatdan turkiy ruboiyda axloqiy-didaktik mazmun kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Har ikkala ruboiyda nur timsollari – quyosh, oy, tong va yorug‘lik markaziy poetik obraz vazifasini bajaradi. Ammo forsiy ruboiyda ular ko‘proq lirik va tasavvufiy mushohada vositasi bo‘lsa, turkiy ruboiyda inson kamoloti va jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi axloqiy idealni ifodalashga yo‘naltirilgan. Bu esa Navoiyning bir xil g‘oyani ikki tilda turli poetik vositalar orqali ifodalash mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning forsiy va turkiy ruboiylari yagona g‘oyaviy-estetik konsepsiyaga asoslangan bo‘lsa-da, ularning badiiy talqinida muayyan o‘ziga xoslik kuzatiladi. Har ikki tildagi ruboiylarda tasavvufiy-falsafiy qarashlar, ilohiy ma'rifat, hamd va munojot, komil inson g‘oyalari mushtarak mazmun kasb etadi. Biroq forsiy ruboiylarda irfoniy mushohada, ramziy obrazlar va tasavvufiy istilohlar keng qo‘llanilgan bo‘lsa, turkiy ruboiylarda ushbu g‘oyalar sodda, xalqona va didaktik ruhda ifodalangan. Bu hol Navoiyning ikki tilning poetik imkoniyatlaridan yuksak mahorat bilan foydalanganini hamda har bir tilda o‘ziga xos badiiy uslub yaratganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 3-jild (Xazoyin ul-maoniy. G‘aroyib us-sig‘ar). – Toshkent: Fan, 1988.
2. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 20-jild. – Toshkent: Fan, 2011.
3. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: Fan, 1991.
4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.
5. Komilov N. Komil inson. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
6. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961.
7. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.

8. Bertels Ye. E. Navoi. Opyt tvorcheskoy biografii. – Moskva: Nauka, 1965.
9. Ishoqov Yo. So‘z san'ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014.
10. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalar va ilmiy talqinlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
11. Jo‘rayev N. Mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2019.